



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr

RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 209,5 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 105244,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 3201,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda respublika hududida 316,0 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 209,5 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2018 yil 1 oktyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (33,1 %) yuqori ulushni egallaydi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 105244,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	105244,8	108,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7147,6	117,3
Moliyaviy xizmatlar	14726,1	125,4
Transport xizmatlari	31247,9	104,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	15386,7	102,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3190,5	105,5
Savdo xizmatlari	28646,3	103,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3336,8	103,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3767,8	124,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1468,8	114,5
Ijara xizmatlari	2253,2	108,5
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1880,8	103,4
Shaxsiy xizmatlar	2703,3	102,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1542,0	131,3
Boshqa xizmatlar	3333,7	108,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlari hajmi 10,5 trln. so'mga, savdo xizmatlari (6,9 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (4,0 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (1,5 trln.so'm), ta'lim xizmatlari (1,1 trln.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 0,3 trln.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (131,3 %), moliyaviy xizmatlar (25,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (124,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,4 %), kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (103,4 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,6 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida uning ulushi 29,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni savdo xizmatlari (27,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arziyas (1,4 %) ni tashkil etadi.

Pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash va aholini qo'llab-quvvatlashga yunaltirilgan kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini o'sishiga turtki bo'lmoqda.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 14726,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi, o'sish sur'ati 125,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %



Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining oshishi Jizzax (144,9 %), Surxondaryo (143,3 %), Navoiy (138,7 %), Toshkent (134,7 %), Samarqand (132,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (140,0 %) kuzatildi.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (88,7 %) etakchilik qilmoqda.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (96,7 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Hududlar o'rtasida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng yuqori ulushni Qashqadaryo (91,0 %), Sirdaryo (90,9 %), Surxondaryo (90,9 %), Samarqand (90,8 %) va Jizzax (90,6 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (90,8 %) egallaydi. Eng past ko'rsatkich Buxuro viloyatida (85,9 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




■ Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

■ Sug'urta bo'yicha xizmatlar

■ Yordamchi moliyaviy faoliyat

Bugungi kunda transport-kommunikatsiya tizimi har bir davlat iqtisodiy salohiyatining ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy va madaniy hamkorligi uchun hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda iqtisodiy tizimni mustahkamlash va rivojlantirish uchun transport xizmatlari ko'rsatish juda muhimdir.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (49,2 %) egallaydi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 17,8 % ni tashkil etadi.


Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar, transport xizmatlari umumiy hajmida 13,9 % ni egallaydi.

Tovarlar va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 11,4 % ni tashkil etadi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 7,7 % ni tashkil qiladi.

Harakatchanlik, qulaylik, nisbatan yuqori bo'lmagan narxlar avtomobil transportiga boshqa transport turlari o'rtasida uzoq muddat birinchilikni saqlab qolish imkonini beradi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 15386,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi (avtotransport xizmatlarining umumiy hajmiga nisbatan), %




Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida eng past ulush Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (2,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 %) qayd etildi.

Eng yuqori ulush Toshkent shahri (16,9 %), Toshkent (13,7 %), Samarqand (11,7 %), Farg'ona (9,1 %), Andijon (8,7 %), Buxoro (7,3 %) va Qashqadaryo (7,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarida boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning turli sohalarida yangi tovarlar va xizmatlar bozorlarini tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish imkonini beradi va bu pirovardida aholining turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (123,6 %), Namangan (117,7 %), Samarqand (117,6 %), Buxoro (117,2 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (118,9 %) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan uncha yuqori bo'lmagan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati Sirdaryo (111,3 %), Xorazm (112,8 %), Surxondaryo (112,9 %) viloyatlarida kuzatildi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 28646,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 67,2 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 6,7 % ni tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 3767,8 mlrd.so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 24,2 % ni tashkil etdi. Ushbu xizmatlarning o'sishi oliy o'quv yurtlarida shartnoma asosida, shu jumladan oshirilgan stavkali shartnoma asosida ta'lim olayotgan abituriyentlar sonining o'sishi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati, %



Hududlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo (162,9 %), Buxoro (147,4 %), Qashqadaryo (136,1 %), Surxondaryo (130,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Andijon (112,0 %) va Samarqand (118,5 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	105244,8	108,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3212,3	112,2
viloyatlar:		
Andijon	5737,1	107,4
Buxoro	4609,1	107,9
Jizzax	2272,2	114,4
Qashqadaryo	5021,3	107,2
Navoiy	2741,0	112,8
Namangan	4339,3	108,1
Samarqand	7115,8	108,2
Surxondaryo	3950,3	109,0
Sirdaryo	1384,8	109,1
Toshkent	7861,9	106,0
Farg'ona	6521,7	107,7
Xorazm	3130,6	108,1
Toshkent shahri	34308,0	112,5

Hududlar o'rtasida Toshkent shahri (34308,0 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Toshkent shahri bo'yicha 112,5 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 32,6 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (114,4 %) va Navoiy (112,8 %) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,0 %), Qashqadaryo (107,2 %), Andijon (107,4 %) viloyatlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Sirdaryo viloyatida (1,3 %) qayd etildi.

Aholi tomonidan turli xildagi xizmatlarga bo'lgan talabning doimiy ravishda o'sishi va davlat tomonidan tegishli infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va b.q.) rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy choralar respublikamizning deyarli barcha hududlarida xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minladi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar tarkibida yuqori ulushga ega xizmat turlarining taqqoslanishi, %



Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining oshishiga, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari va transport xizmatlari kabi xizmat turlari ulushining ortishi ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligi qayd etilmoqda.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3201,8 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 811,3 ming.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - 13826,1 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyatida - 112,3 % kuzatildi.

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Mas'ul:

Q.Berdiqulov